



“BOBURNOMA”DAGI AYRIM TOPOGIDRONIMLAR TAHLILI

Jalilova Madina Murotovna

*NamDU 10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi
bo‘yicha mustaqil izlanuvchi.
Namangan shahar 50-sonli maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
90 740 43 53.*

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida berilgan topogidronimlarining nomlanish motivlari berilgan, izoh va talqinlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gidronim, onomastik konversiya, oykonim, oronim, lisoniy omil, nolisoniy omil, gidronimik indikator.

АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ТОПОГИДРОНИМОВ В “БОБУРНОМЕ”

Аннотация: В статье поясняются мотивы наименования топогидронимов данных в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура пояснения и толкования.

Ключевые слова: гидроним, ономастическая конверсия, ойконим, ороним, лингвистический фактор, нелингвистический фактор, гидронимический индикатор.

ANALYSIS OF SOME TOPOHYDRONYMS IN “BOBURNOMA”

Annotation: In the article, the motivations for naming the toponyms given in “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur, explanations and interpretations are explained.

Key words: hydronym, onomastic conversion, oikonym, oronim, linguistic factor, nonlinguistic factor, hydronymic indicator.

KIRISH. Tilning toponimik tizimi doirasida onomastik konversiya (nom ko‘chish) ning o‘ziga xos tamoyili shakllangan. Bunga ko‘ra toponimik tizimdagagi mavjud bir joy nomi ikkinchi joy nomiga aylanadi: shahar, qishloq nomi suv obyekti nomi (gidronim) ga, aksincha, suv obyekti nomi – gidronim qishloq yoki shahar nomiga – oykonimga o‘tishi kabi. Nom ko‘chishi, nomlardan nomlarning tug‘ilish jarayoni lisoniy va nolisoniy omillar mahsulidir. Topogidronimlarning yuzaga kelishida ham bu hol yaqqol seziladi.

Suv obyektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari topogidronimlar hisoblanadi. [1.90]. Topogidronim – suv obyektlarining quruqlikdagi geografik obyektlar nomiga nisbat berish orqali yasalgan atoqli oti. [2.76].

Odatda topogidronimlarning yuzaga kelishining bir qator lisoniy va nolisoniy sabablari bor:

1. Suv obyektining qaysi hududdan oqib o‘tishi topogidronimni hosil qilgan. (*Xo‘jand suyi, Andijon rudi*).

2. Suv obyektining qaysi hududda joylashishi topogidronimni hosil qilgan. (Sekriy ko‘li, Kindgar chashmasi).

Topogidronimlarning shakllanishining yana bir jihat shundaki, bunda yangi nom – gidronim iste’molda bo‘lgan boshqa nom – toponim asosida yaratiladi. Bu esa, albatta, yangi nom yaratishdan ko‘ra qulay va yengilroqdir. Demak, topogidronimlar nomlar asosida yaratilgan nomlardir. Gidronimlar toponimik nomlar bilan atalganda ular tarkibida ko‘pinch *daryo, soy, anhor, ariq* singari suv obyekti turini bildiruvchi gidronimik indikatorlar bilan birikib keladi. Gidronimik indikator – atoqli otning suv bilan bog‘liq obyektning nomi ekaniga ishora qiluvchi aniqlagich. [2.25].

Ma’naviy qadryatlarimizning bir bo‘lagi bo‘lmish “Boburnoma” asarida biz ko‘plab topogidronimlarni uchratamiz va ular *daryo, rud, suy, ko‘l, guzar, soy, chashma* kabi indikatorlar bilan ifodalanganini guvohi bo‘lamiz. Tadqiqotda asardagi topogidronimlar tahlil qilinib, guruhlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Memuardagi topogidronimlarning qanday joy nomi asosida yuzaga kelganligiga ko‘ra quyidagi turlari kuzatiladi:

1) oykonimlarga nisbat berib nomlangan suv obyekti nomlari:

a) shahar nomi bilan atalgan suv obyekti nomlari: *Xo‘jand suyi, Andijon rudi, Aksi suyi* kabi;

b) qishloq nomlari – komonimlar bilan atalgan suv obyektlari: *Karbon soyi, Sang suyi* kabi.

s) qo‘rg‘on nomlari : *Kachakot suyi* kabi.

2) oronimlarga nisbat berib nomlangan gidronimlar: *Cho‘para guzari, Gulbahor suyi, Kamrud rudi* kabi.

1. Oykonimlarga nisbat berib nomlangan suv obyekti nomlari.

Asarda Farg‘ona viloyati tasvirida uning janubiy tarafidagi shaharlardan biri, Farg‘onaning poytaxti Andijon va shu hududdan oqib o‘tuvchi Andijon rudi haqida Bobur atroflicha ma’lumot beradi. Bu daryo Kichik Oloy tizmasining suvayrig‘ich qismidan boshlanadi. Andijon viloyati hududidan oqadiga daryo, shu hudud nomi bilan atalgan: *Andijon rudi O‘shning mahallotining ichi bila o‘tub, Andijong‘a borur*. [3.35]. Ba’zi o‘rinda bu daryo nomi “suyi” gidronimik aniqlagich bilan ham keladi: *Nechukkim, Andijon suyi O‘shdin kelur*. [3.36]. Demak, Bobur rud va suy, suv so‘zlarini ma’nodosh sifatida qo‘llagan bo‘lib, bu so‘zlar daryo ma’nosini anglatgan. Andijon rudi – kichik daryo. Temuriylar davrida O‘sh shahridan o‘tib, Andijongacha oqib kelgan. Hozirgi nomi Oqbura, asosiy qismi Qirg‘iston hududida. S. Jalilov fikricha ham, Andijon rudi aynan Oqbura. Manbalarda gidronim Oqbura, Oqbo‘ra,

Oqbo‘yra shakllarida uchraydi. [4.22]. Bobur daryo suvidan obodonchilikda keng foydalanishini ta’kidlagan: *Bu rudning har ikki jonibi bog‘ot tushubtur, tamom bog‘lari rudqa mushrifstur, binafshasi bisyor latif bo‘lur.* [3.36].

Memuarda bir o‘rinda Aksi suyi topogidronimi keltiriladi: *Aksi suyi Kosondin kelur.* [3.36]. Misoldan ayon bo‘lganidek, Kosondan oqib keluvchi Kosonsoy Aksi hududiga kelgach shu joy nomi bilan atalgan, Aksi toponimiga suyi indikatori qo‘shilib yangi topogidronim hosil bo‘lgan. Bu daryo dastlab Chotqol tog‘ tizmasidan Chilquduqsoy nomi bilan boshlangan. Sirdaryo irmoqlaridan biri bo‘lgan – Aksi suyi hozirda Kosonsoy deb ataladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyodagi yirik daryo, Tyanshan tog‘laridan boshlangan, Norin va Qoradaryo qo‘shilishidan hosil bo‘lib, Orol dengizi tomon oqqan Sirdaryo asarda *Sayhun suyi, Xo‘jand suyi* deb atalgan: *Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharqu shimol tarafidin kelib, bu viloyatning ichi bila o‘tub, g‘arb sori oqar.* [3.34]. Xo‘jand – Sirdaryo bo‘yidagi shahar bo‘lib, (hozir Tojikistonligi Sug‘d viloyati markazi) Sirdaryoning shu hududdan o‘tgan qismi shu joy nomi bilan atalgan: *Qosim Ajabnikim, Axsida oriyati qo‘yulib edi, oz-og‘loq qazoq keyinicha chiqib, qavlab Bichrota bila Xo‘jand suyidin o‘tarda Tanbalning qalin kishisiga uchrab, ilikka tushti.* [3.73].

Yana shunday topogidronimlarga *Kobul suvini* misol qilib keltiramiz: *Andin namozi peshin otlanib, partoldin ayrilib, ikki pos bo‘lib edikim, Kobul suvinining yoqasig‘a kelib, ozroqcha uyuxladuk.* [3.178]. Kobul suvi Hind daryosining o‘ng irmoqlaridan biri bo‘lib, yuqori oqimi Kobul shahridan o‘tganligi bois, shu toponim nomi bilan atalgan.

Memuarda Chotqol tizmasining janubiy yon bag‘ridan boshlanuvchi G‘ovasoyni Bobur Karnon hududidan oqib o‘tgani uchun *Karnonsoy* deb atagan va bu soy G‘avodan hozirgi G‘ova qishlog‘idan chiqib kelishini qayd etgan: *Karnon soyig‘akim G‘avodin chiqib kelur, yettuk.* [3.98]. Hozirda shu nom bilan ataluvchi Karnon qishlog‘i bor, Chust tumanida joylashgan. Karnon soyi ham huddi shu joydan oqib o‘tgani uning nomlanishiga asos bo‘lgan. Demak, Karnon soyi ham topogidronimga yorqin misol bo‘la oladi. Tilning toponimik tizimi doirasida bu hodisa transonimizatsiya (biror tip atoqli otning, boshqa tip atoqli otga o‘tishi) deb aytildi. [2.84]. Yuqoridagi misolda qishloq nomi suv obyekti nomiga o‘tgan. Asarda bunday toponimlar talaygina topiladi. Jumladan, Aksi yaqinidagi kent Sang bo‘lib, Bobur bu hududdan oqib o‘tgan soyni Sang soyi deb ataydi: *Sangga yetguncha aksar kishimizni tushurdilar. Sang Axsidin ikki shar‘iydur. Sangdin o‘tgach keynimizda yog‘iy kishisi ko‘rinmay, Sang suyi yuqqoriro‘q yuruduk.* [3.97].

Chag‘onsaroy (Jig‘ansaroy) – Kobul viloyatining sharqida joylashgan bo‘luk: *Yana bir bo‘luk Chag‘onsaroydur, bir kenttur.* [3.111]. Bu shahardan oqib o‘tgani daryo shu hudud nomi bilan atalgan, shahar nomi daryo nomiga ko‘chgan: *Ulug‘rudkim, Chag‘onsaroy suyig‘a mashhurdur, Chag‘onsaroyning sharq-shimolidan va Bajavrning orqasidin kelur.* [3.111].

Savod (Savad) – Kobul viloyatiga sharqdan chegaradosh tog‘li viloyat (hozir Pokistonning shimoliy qismida). [5.438]. Memuarda uning hududidan oqadigan daryo Savod suyi deb atalgan: *Namozi dig‘ar Savod suvinining Kobul tarafиг‘a kechib tushuldi.* [3.178].

“Boburnoma”da topogidronimlarni ko‘plab uchratamiz: **Bangash rudi Bannuga chiqar**, *Bannu bu suv bila ma’murdur*. [3.119]. Bangash Kobul viloyatidagi tumanlardan biri bo‘lib, shu hududdan oqib o‘tgan anhor shu hudud nomi bilan atalgan. Yuqqoridagi misolda tuman nomi suv obyekti nomiga o‘tgan.

Yana shunday nomlardan nomlarning tug‘ilish jarayoniga G‘azni rudini misol qilib keltiramiz: *Munda yig‘ilur suvlar kattavoz vodiysining va Zurmat julg‘asining va G‘azni rudining, bahor yomg‘urlarining sellari va yozlar suv ulg‘ayganda ziroatdin ortkop suvlari emish*. [3.122]. G‘azni viloyati Afg‘onistonidagi shaharlardan biri bo‘lib, shu hududdan oqib o‘tgan anhor shu toponim nomi bilan atalgan.

Yana shunday topogidronimlardan biri *Panjhir daryosidir*. Panjhir (Panjsher) – Kobuldan 90 km shimoldagi tuman bo‘lib, Bobur bu hududdan oqib o‘tgan daryoni shu hudud nomi bilan atagan: *Panjhir suvining qotilishida jola tog‘ning to‘qunishig‘a urunub, g‘arq bo‘layozdi*. [3.176].

Shunindek, *Ali Masjid suvi*. Ali Masjid – Afg‘oniston bilan Pokiston chegarasida joylashgan Xaybar dovonining etagidagi xushtabiat joy bo‘lib, Bobur bu hududdan oqib o‘tgan daryoni shu hudud nomi bilan atagan: *O‘sul qaror bila suv yoqasidin sahar ko‘chub, Jomdin o‘tub, Ali Masjid suvining‘ chiqishida tushuldi*. [3.178].

Shunday topogidronimlardan yana biri *Kindgar chashmasidir*. Kindgar Mandiravor (Kobul viloyatidagi tuman) tumanidagi kent. Bobur Lamg‘ondan qaytishda Kindgar kentiga kelgan. Bobur bu joyda xurmo o‘sishini ta’kidlab, kent yaqinidagi ajoyib bir chashmaga sayr qilganini yozgan va bu chashmani Kindgar chashmasi deya nomlagan: *Chahorshanba kuni Kindgar chashmasig‘a borib, sayr qilduk. Kindgar Mandirovar tumanig‘a taalluq kenttur. Tamom Lamg‘onotda ushbu kentta –o‘q xurmo bordur*. [3.182]. Demak, chashmaning Kindgar hududida joylashishi (hosil bo‘lishi) bu nom bilan atalishiga sabab bo‘lgan.

Suv obyektining qaysi hududda joylashishi topogidronimni hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan topogidronimlardan yana biri *Sekri ko‘lidir*: *Darvesh Muhammad sorbon bila Qismtoykim, Bayanag‘a borib-kelib yer-suvni ko‘rub-bilib edi, ilgari Sekriy ko‘lining yoqasida yurt ko‘ra yiborildi*. [3.220]. Sekri – Agradan 40 km masofadagi joy nomi. [5.455]. Bobur Rano Sangoga qarshi kurashda katta lashkarga suvi yetadigan birdan bir joy Sekriy deb hisoblaydi. Shuning uchun ko‘l yoqasida qarorgoh ko‘rish uchun odamlarini jo‘natadi va bu hududda joylashgan ko‘lni *Sekri ko‘li* deb nomlaydi.

Ana shunday topogidronimlardan yana biri *Kishm suyidir*. Kishm – hozirgi Afg‘onistonning Badaxshon viloyatiga mansub shaharcha. Fayzobod shahri yaqinida. [5.290]. Bobur bu yerdan oqadigan Ko‘kcha daryosini shu hudud nomi bilan *Kishm suyi* deb atagan: *Kishmning oyog‘ida Shohidonda Kishm suyining sharqiy tarafida cheriklab o‘lturub edilarkim, bu o‘zbaklar tong boshida shabixun kelib, Kishm suyini o‘tub, Nosir mirzoning ustiga yurudi...Kishm suyi uluq edi, bu suvdin kechib kelib edilar*. [3.141]. Bu daryo Panj daryosining chap irmog‘i bo‘lib, Afg‘onistonning shimoliy sharqiy qismida joylashgan. Hindukush tog‘larining shimoliy yonbag‘irlaridan oqib o‘tgan. Bobur bir o‘rinda bu daryoni Ko‘kcha nomi

bilan ham atagan: *Barcha ittifoq qilib, cherik tortib, Ko‘kcha suyining‘ Yaftal va Rog‘ sori tuzi bila otliq-yayoqni yig‘ib, yasob pushtalar bila Xamchonning‘ yovug‘ig‘a keldilar.* [3.151]. Demak, Bobur bizningcha ba’zi gidronimlarga o‘zi nom berib topogidronim hosil qilgan va bu nom suv obyektining qayerdan oqib o‘tganini, qaysi hududda joylashganligini namoyon etib turgan. Bu daryo hozirgi kunda ham hech o‘zgarishsiz *Ko‘kcha daryosi* deb ataladi. Uning varianti bo‘lgan *Kishm suyi* esa iste’moldan chiqib ketgan.

Shuningdek, *Parsaru* suyi. *Parsaru* – Hindistondagi Saru daryosi qirg‘og‘ida joylashgan shaharcha bo‘lib, Bobur shu hududdan o‘tuvchi daryoni ham shu hudud nomi bilan *Parsaru* deb atagan: *Tonglasi panjshanba kuni erta ko‘chub, Saru daryosidin ayrilib o‘n bir kuro‘h yo‘l kelib, Parsarudin o‘tub, Parsaruning yoqasida tushuldi... Ushbu Parsaruda kecha tahorat qiladur edim, sham yorug‘ig‘a qalin baliqlar yig‘ilib, suv yuziga chiqtilar. Men va yovug‘umdag‘ilar ilik bila qalin baliq tuttuk.*

Odina kuni Parsaruning bir shox obining boshig‘a tushuldi. Xeyli inichka suv edi. [3.260]. Bobur bu o‘lkada olib borgan janglari paytida *Parsaru* daryosi yoqasi lashkar uchun qo‘nalg‘a vazifasini bajargan.

Asarda *Andarob suvi* ham keltirilgan bo‘lib, bu daryoning nomlanishiga ham qaysi hududdan oqib o‘tgani sabab bo‘lgan. *Andarob* Afg‘oniston viloyati bo‘lib, Kobulni Qunduz viloyati bilan bog‘lovchi yo‘l ustida, Hinduqush tog‘lari yonbag‘rida joylashgan. Hududidan shu nomdagi daryo oqib o‘tadi: *Ya‘qubga ijozat bergandin so‘ng Qizilsuv quyi ko‘chib, Andarob suyining qotilishig‘a yoruq tushuldi. Tonglasi, rabiulavval oyining avositida jarida Andarob suyini o‘tib, Dushi navohisida bir ulug‘ chinor tubida o‘lturdim.* [3.104].

Qomusnomada topogidronimlardan *Bajavr suyi* ham keltirilgan. *Bajavr* (Bajaur, Bajur) – Kobulning sharq tomonida, Pokistonning shimoliy qismida joylashgan tog‘li viloyat bo‘lib, asarda viloyat hududidan oqib o‘tgan soy *Bajavr suyi* deb atalgan: *Odina kuni, safar oyining uchida Panjkura suyi bilan Bajavr suyining qotilishig‘a tushuldi.* [3.164].

Asarda tilga olingan *Parvon suyi* ham topogidronimga misol bo‘ladi. *Parvon* – Kobul viloyatining shimoliy qismi tog‘ etagida joylashgan kent bo‘lib, memuarda bu hududdan oqib o‘tgan daryo *Parvon suyi* deyilgan va undan mahalliy aholi tol novdalaridan to‘qilgan savat bilan baliq tutishi aytilgan: *Sabohi otlanib, ma‘jun yeb, Parvon suv qotilishida Parvon suvig‘a bu el dasturi bila baliq dorusi solib, qalin baliq tutuldi.* [3.176].

Memuarda Bobur bir qancha guzar nomlarini ham keltirgan bo‘lib, bular ham topogidronimlarga misol bo‘ladi. Guzar – daryodan kechib o‘tiladigan joy, kechuv. [6.62]. Asarda bir qancha Amudaryo bo‘yidagi guzar nomlari keltirilgan. Masalan, *Tirmiz, Kilif, Karki, To‘qquz o‘lum guzari*. *Tirmiz* shahri yonida daryoning eng muhim kechuvi bo‘lgan va u “*Tirmiz guzari*” deb nom olgan. Xuddi shu kabi *Kilif* Amudaryo sohilidagi shahar bo‘lib, bu yerdagi kechuv “*Kilif guzari*” deb atalgan va muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan: *Tirmiz va Kilif va Karki guzarlarida kema muncha yasang, ko‘pruk asbobi bu miqdor tayyor qiling, yuqqori To‘qquz o‘lum guzarlarni yaxshi ehtiyyot qiling.* [3.103]. Karki guzarining nomlanishiga esa Amudaryoning chap sohilidagi Karki qo‘rg‘oni nomi asos bo‘lgan. [5.283].

Huddi shunday topogidronimlarga *Dinkot guzarini* ham misol qilib keltirishimiz mumkin: *Dinkut guzari bila o‘tganlar Bangash bila kelurlar.* [3.109]. Dinkot – Pokistonning shimolida, Sind daryosining o‘ng sohilida joylashgan qo‘rg‘on bo‘lib, uning yaqinidagi guzar shu qo‘rg‘on nomi bilan atalgan.

2. Oronimlarga nisbat berib nomlangan gidronimlar.

Cho‘pora guzari Sind daryosidagi guzarlardan biri bo‘lib, “Boburnoma”da bu guzardan shimol tomondagi tog‘lar Cho‘pora tog‘lari deb atalgan. Guzarning nomlanishiga shu tog‘larning nomi asos bo‘lgan: *Chupora guzari bilan o‘tganlar agar Farmul bila kelsalar, G‘azni kelurlar va agar Dasht bila borsalar, Qandahor borurlar.* [3.109]. Demak, aksariyat guzarlarning nomlanishiga shu hududdagi toponimlar nomi motiv bo‘lib xizmat qilgan va topogidronimlarni hosil qilgan.

Memuarda, shuningdek, *Gulbahor suyi* topogidronimi ham keltirilgan. Gulbahor Kobul viloyatining shimoli g‘arb tomonida joylashgan tog‘ etagi. U yerdagi daryo va kent ham shu nom bilan atalgan. [5.213]: *Gulbahor suyida, Paravon suyida, Istalif suyida bu tariqa bila tutarlar.* [3.116]. Gulbahor domonasi (tog‘ etagi)dan oqib o‘tuvchi kichik daryo shu tog‘ nomi bilan atalgan.

Yana shunday nomlardan nomlarning tug‘ilish jarayoniga *Kamrud rudini* misol qilib keltiramiz. Kamrud Hisor tizmasidagi dara bo‘lib, undan oqib o‘tuvchi daryo “Boburnoma”da *Kamrud rudi* deb atalgan: *Sulton Mas‘ud mirzo Hisorda turmoqning maslahatini topmay, Kamrud rudi yuqqori Siri tog‘ yo‘li bila inisi Boysunqur mirzo qoshig‘a Samarcandg‘a bordi.* [3.52].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

“Boburnoma” asari o‘zbek tili tarixiy onomastikasini o‘rganishdagi o‘rni va mohiyati beqiyos. Tadqiqotda asardagi topogidronimlarning leksik-semantik tasnifi va tavsifi berildi va ular tahlili asosida topogidronimlarning yuzaga kelish motivlari aniqlandi.

XULOSA. Memuardagi toponimlar sistemasida gidronimlar va topogidronimlar uning tarkibiy qismi sifatida alohida ajralib turadi. Asarda tilga olingan gidronimlarning salmoqli qismini topogidronimlar tashkil etadi, va ular variantdorlikni hosil qilgan.

“Boburnoma”dagi gidronimlarning lisoniy shakllanishida gidronimik aniqlagichlar (suyi, suvi, rud, daryo, hovz, guzar, jo‘yi va boshqalar) turli mustaqil so‘z turkumiga oid so‘zlarga qo‘shilib, ularni suv obyekti va inshootlarining atoqli nomini ifodalashga xoslaydi. Qomusnomadagi gidronimik aniqlagichlar tarixiy-etimologik jihatdan, asosan, umumturkiy, fors-tojikcha, qisman, arabcha lug‘aviy qatlamga mansubdur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқики. – Тошкент: Фан, 2008.
2. Бегматов Э, Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати.– Наманган, 2006.

3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.–Тошкент: Шарқ , 2002.
4. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati.–Toshkent, 2022.
5. Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.